
«Yoshlar parlamenti»ga munosib yoshlar saylandi

Respublikamizning barcha tuman-shaharlarida bo'lgani kabi Qo'shtepa tumanida ham O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi huzuridagi «Yoshlar parlamenti» a'ziligiga saylovlar yuqori darajada tashkil etildi.

5 ta siyosiy partiyadan yuksak ma'naviyatli, siyosiy ongi va tafakkuri teran eng kuchli yoshlar nomzod sifatida ko'rsatildi.

Qonunchilik palatasi huzuridagi «Yoshlar parlamenti» a'ziligiga Qo'shtepa tumanidan Abduxamidov Elmurodjon Dilmurodjon o'g'li saylandi.

U hozirgi kunda O'zXDP Qo'shtepa tuman kengashi raisi o'rinbosari lavozimida faoliyat yuritmoqda.

Elmurodjon Abduxamidovga o'z dasturlari bilan yoshlarni qo'llab-quvvatlash, ularning manfaatlarini himoya qilishdek maqsadlarini amalga oshirishida ulkan muvaffaqiyatlar tilaymiz.

Qo'shtepa tumani hokimligi Axborot xizmati.

2020-08-13 16:51:21